



ALFRAGANUS UNIVERSITY

**UCHINCHI RENESSANS –
TA'LIM VA TARAQQIYOT:
★ O'TMISH, BUGUN VA KELAJAK ★
mavzusidagi
I Xalqaro talabalar
Konferensiyasi**

2023-YIL 17-NOYABR

Xasanboyev Xojiakbar Ilhom o'g'li
“Alfraganus university” nodavlat universitetining
Tibbiyot fakulteti 1-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: Katta o'qituvchi: Mansurova Dilorom Aslanovna

UMURTQA POG'ONASINING ANATOMIK TUZILISHI VA UNDAGI PATALOGIK O'ZGARISHLAR

Annotatsiya: Ushbu maqolada umurtqa pog'onasining tuzilishi, uning patologiyasi hamda patologik kasallik turlari haqida so'z yuritiladi. Maqola ilmiy-ommapob shaklda yozilgan bo'lib, buni tibbiyot xodimlari va talabalari hamda boshqa barcha soha vakillari o'qishi mumkin.

Kalit so'zlar: skolioz, lordoz, kifoz, ontogenez,patologiya





Umurtqa pog'onasi (columna vertebralis) odam va umurtqali hayvonlar skeletining asosiy qismi. Ontogenezda tog'ayli yoki suyakli umurtqa tanasi rivojlanib, embriondagi xordaning dastlab bir oz qismi, keyinchalik hammasini egallagan. Inson tana tuzilishida umurtqa pog'onasi juda muhim ro'l o'ynab, orqa miyani himoya qilish va qadni tutish kabi vazifalarni bajaradi. Odam umurtqa pog'onasi 33-35ta umurtqadan tashkil topgan. Har biri o'ziga xos tuzilishga ega bo'lib, pog'ona qurishda o'zining alohida o'miga egadir.

Umurtqa pog'onasi homila davrida dastlab xorda shaklida paydo bo'lib, keyinchalik xordadan turli organlar hosil bo'lgach alohida tarzda rivojlanadi. Xordadan embrionning ichak, nerv va orqa miyasi hosil bo'ladi. Odam umurtqa pog'onasining dastlabki 7 tasi bo'yin umurtqasi bo'lib, boshqa barcha umurtqalarda ham shunday.



Embrionning umurtqa pog'onasi tasviri

Keyingi 12 ta umurtqa ko'krak umurtqalari bo'lib, ularga qovurg'a (costa)lar birikkan. 5 ta umurtqa esa bel, yana 5 taasi dumg'aza, qolgan 4-5 ta umurtqa birikkan holda dum umurtqasini hosil qiladi.



Columna vertebralis



Umurtqa pog'onasi turli tashqi ta'sirlar hamda noto'g'ri harakatlar orqali turli patologik holatlarga uchrashi mumki. Bu patologik o'zgarishlardan eng keng tarqalgani umurtqa pog'onasining qiyshayishidir.

Umurtqa pog'onasining qiyshayishi-normal umurtqa pog'onasi(columna vertebralis) shaklining o'zgarishidir. Odam umurtqa pog'onasining 3 xil: skolioz(yonga), lordoz (oldinga) va kifoz(orqaga) qiyshayishi farqlanadi.

Katta yoshdagi odamlarning umurtqa pog'onasida old va orqa tomonga qaragan kichikroq bukilma mavjud. Bu bukilma asta sekin, yoshlikdan, ayniqsa chaqaloqlik davrida turish va tik turishni boshlagandan vujudga keladi. Bu holat kasallik emas, balki normal fiziologik holatdir. Umurtqa pog'onasining kasalligi esa ana shu normal holatdan old yoki orqa tarafga qarab o'zgarishidir.

Skolioz (yunoncha skolios-qiyshiq,egri) qiyshayish tug'ma ya'ni homila davrida umurtqalarning noto'g'ri rivojlanishi tufayli bo'lishi mumkin. Bu holat ko'proq 5-15 yashar bolalarda, ayniqsa o'quvchilar orasida ko'p uchraydi. Partada noto'g'ri o'tirish natijasida, umurtqa pog'onasiga va muskullarga og'irlik bir xil tushmaydi. Oqibatda muskullar bo'shashib, umurtqa pog'onasi boylam (ligamentum)lari shakli o'zgaradi hamda turg'un skoliozga olib keladi. Bolalarning yoshlikda raxit bilan og'riganligi, kattalarning asosan bir qolda yuk ko'tarishlari ham skoliozga olib kelishi mumkin. Skolioz yana umurtqa sinishi

kelishi mumkin. Skolioz yana umurtqa sinishi yoxud yemirilishi orqali ham kelib chiqishi mumkin.

Skoliozning egrilik chizig'i bo'yicha uchta turi mavjud:

C shaklidagi skolioz (bir egri chiziqli)

S shaklidagi skolioz (ikkita egri chiziqli)

Z shaklidagi skolioz (uchta egri chiziqli)

2013-yildan beri har yili 30-iyunda "Xalqaro skolioz kuni" nishonlanadi. Bu sanani Buyuk Britaniya Skolioz Assotsiatsiyasi (SAUK) boshlab bergan. Bu kun skolioz bemorlari va shifokorlar muhim ahamiyatga ega.



Skolioz

Rrentgenda ko'rinishi

Kifoz qiyshayish (yun. Kyphosis- qiyshaymoq, bukilmoq) - yoysimon bo'lib, bunda umurtqa pog'onasining qaysidir bo'lagi orqaq tarafga qarab qiyshaygan bo'ladi. Yoysimon kifoz umurtqa pog'onasining ko'krak qismida ko'proq uchraydi va xalq tilida "bukrilik" deyiladi. Kifoz uzoq vaqt egilib ishlash,

partada engashib yozish, bel bilan og'ir yuk ko'tarish natijasida orqa muskullar tonusining kamayishidan kelib chiqadi. Yoki yoshlikda raxit bilan og'rigan bolalarda kelib chiqishi mumkin. Kifozning ko'plab turlari mavjud shulardan ayrimlari quyidagilar:

Tug'ma kifoz- umurtqa pog'onasining rivojlanishidagi anomaliyasidan kelib chiqadi.

Genotipik kifoz- bir necha avlodlarda qaytariluvchi bir xil shakldagi kifoz bo'lib dominant tarzda irsiylanadi.

Kompressiv kifoz- bir yoki bir necha umurtqalarning sinishi, siqilishi natijasida oldingi bo'lim balandligi pasayishi orqali vujudga keladi.

Mobil kifoz- orqa mushaklarning kuchsizligi orqali paydo bo'ladi.



Kifoz

Lordoz(yun.liros-egilgan)- umurtqa pog'

Lordoz (yun. *lordos*-egilgan)- umurtqa pog'onasining ichkariga qiyshayishi. Bunga ko'pincha chaqaloq suyagining son suyagi bilan tutashgan bo'g'imining chiqishi sabab bo'ladi. Bel lordozi qoringa yog' yig'ilishidan ham vujudga kelishi mumkin. Lordozda umurtqalar deformatsiyalanadi va og'riydi. Umurtqa pog'onasining shikastlangan qismining harakati qiyinlashadi.



Lordoz

318

Xulosa: Umurtqa pog'onasi yaxlit bir tuzilmaga ega bo'lib, har bir qismining o'ziga xos funksiyalari mavjud. Agar ular patologik o'zgarishga uchrasa, o'z vazifalarini bajarishlari qiyinlashadi. Bu holatga tushmaslik uchun to'g'ri hayot tarziga amal qilish kerak. Zero, buyuk yunon faylasufi Aristotel aytganidek, inson uchun birinchi baxt-sog'lik, ikkinchisi esa- go'zallikdir.

Foydalanilgan adabiyotlar va saytlar:

- 1.O'zME (O'zbekiston milliy ensiklopediyasi)
2. А.Н. Бакланов, С.В. Колесов, И.А. Шавырин. Сравнительный анализ результатов лечения пациентов с тяжелыми деформациями позвоночника

Xulosa: Umurtqa pog'onasi yaxlit bir tuzilmaga ega bo'lib, har bir qismining o'ziga xos funksiyalari mavjud. Agar ular patologik o'zgarishga uchrasa, o'z vazifalarini bajarishlari qiyinlashadi. Bu holatga tushmaslik uchun to'g'ri hayot tarziga amal qilish kerak. Zero, buyuk yunon faylasufi Aristotel aytganidek, inson uchun birinchi baxt-sog'lik, ikkinchisi esa- go'zallikdir.

Foydalanilgan adabiyotlar va saytlar:

- 1.O'zME (O'zbekiston milliy ensiklopediyasi)
2. А.Н. Бакланов, С.В. Колесов, И.А. Шавырин. Сравнительный анализ результатов лечения пациентов с тяжелыми деформациями позвоночника при использовании винтовых и гибридных металлоконструкций // Травматология и ортопедия России. — 2014. — № 1. — С. 34–43. — ISSN 2311-2905.
- В.В. Дробышевский. Умер Доктор Шено // Ортопедия, травматология и восстановительная хирургия детского возраста. — 2022. — Т. 10, № 3. — С. 344–345. — ISSN 2309-3994.
- 3.Wikipediya
4. Atlas/N.K.Ahmedov. Toshkent-2018. S-4-9.
- E.E.Mashayev¹, F.U.Shapatov², F.A.Sobirova²,
A.B.Turopov²
- Katta o'qituvchi¹, Katta o'qituvchi², k.f.f.d., PhD
², 102-guruh talabasi²Toshkent kimyo-
texnologiya instituti¹, Alfraganus universiteti²
- N,N'-GEKSAMETILEN BIS-[(O,M-KREZOLILO)- KARBAMAT]LARNING IN
SILICO O'TKIR TOKSIKLIGI**